ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№8(2)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

// MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 172 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor***
***Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor***
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education ........ 10
**Alimov Jamshid Ravshanovich**

Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari ........ 16
**Yorkulov Zafarjon Bakirovich**

Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari ........ 20
**Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi**

O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin? ........ 26
**Dilnura Rustamovna Xamrayeva**

Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida ........ 33
**Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich**

Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari ........ 40
**Rahmatova Nasiba Sobirovna**

Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi ........ 46
**Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna**

Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish ........ 50
**Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna**

Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar ........ 55
**Sobir Azizov**

Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli ........ 57
**Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich**

Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar ........ 62
**E. E. Jumayev**

Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi ........ 65
**Jumayeva Gulxan Amrullayevna**

Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida ........ 71
**Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li**

TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi ........ 75
**Omonova Maftuna Shermatovna**

Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi ........ 82
**Sevara Alimurodova, Ayubova Saida**

Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish ........ 88
**Nurmaxanov Kayrat Erpayizovich**

Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari ........ 95
**Poyonova Fazilat Olimovna**

Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash ........ 100
**Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova**

Oliy ta’lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo‘llari ........ 106
**Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich**

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim sifatini boshqarishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari ........ 110
**Sodiqov Rafikjon Turobjon o‘g‘li**

Bo‘lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ... 114
**To‘xtayeva Dilrabo Nematovna**

Inklyuziv ta’lim: mohiyati, tamoyillari ........ 119
**Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna**

The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice ........ 123
**Turayev Alimjan**

Orthodontics’ Digital Transformation (Literature Review) ........ 128
**Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.**

O‘zbekiston SSRda ta’lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar ........ 136
**Mamatkulova Maxfuza Kozimovna**

Application of Mechanotherapy Techniques in Oral and Craniofacial Surgical Methodologies (Literature Review) ........ 140
**Marufova Farangiz Gayratovna**

Theoretical Foundations for Developing Communicative Competence of Future Doctors ........ 147
**Nasimova Shahnoza Ziyodullayevna**

Формирование функциональной грамотности и “гибких навыков” (Soft Skills) у учащихся начальных классов в контексте реализации национальной учебной программы Узбекистана ........ 152
**Ю. С. Тажиева**

Talabalarda mustaqil ta’lim olish faoliyatini rivojlantirish metodlari ........ 156
**Jabborov Toxirjon Maqsudali o‘g‘li**

Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi onim komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari ........ 160
**Koyshekenova Tatyana Kenesariyevna**

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi ........ 164
**Qo‘shaqov Farrux Furqat o‘g‘li**

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faollikni oshirishning pedagogik usullari ........ 169
**Xoldarova F. M.**

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KOGNITIV FAOLLIKNI OSHIRISHNING PEDAGOGIK USULLARI

Xoldarova F. M.
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kognitiv faollikni rivojlantirishning pedagogik asoslari, zamonaviy ta'lim texnologiyalari hamda samarali metodlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Kognitiv faollik bolaning bilishga boʻlgan qiziqishi, mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etishi va ijodiy yondashuvini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, tarbiyachining kasbiy mahorati va rivojlantiruvchi ta'lim muhiti orqali kognitiv faollikni shakllantirish masalalari yoritilgan.

**Kalit soʻzlar:** maktabgacha ta'lim, elementar matematik tushunchalar, kognitiv faoliyat, rivojlantiruvchi ta'lim, didaktik oʻyin, pedagogika, mantiqiy fikrlash, matematik kompetensiya, pedagogik usul, interfaol metodlar.

**Abstract:** This article provides a scientific and theoretical analysis of the pedagogical foundations of the development of cognitive activity in older preschool children, modern educational technologies, and effective methods. Cognitive activity is an important factor in the formation of a child's interest in knowledge, independent thinking, problem-solving skills, and a creative approach. The article also highlights the role of the educator's professional skills and a developmental learning environment in fostering cognitive activity.

**Key words:** preschool education, elementary mathematical concepts, cognitive activity, developmental education, didactic game, pedagogy, logical thinking, mathematical competence, pedagogical method, interactive methods.

**Аннотация:** В данной статье представлен научно-теоретический анализ педагогических основ развития познавательной деятельности у детей старшего дошкольного возраста, современных образовательных технологий и эффективных методов. Познавательная деятельность является важным фактором формирования у ребенка интереса к знаниям, самостоятельного мышления, навыков решения проблем и творческого подхода. Также освещаются вопросы профессиональной подготовки педагога и развития образовательной среды в процессе формирования познавательной деятельности.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, элементарные математические понятия, познавательная деятельность, развивающее образование, дидактическая игра, педагогика, логическое мышление, математическая компетентность, педагогический метод, интерактивные методы.

## KIRISH

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Sababi, tarbiyalanuvchilarning intellektual, ijtimoiy va aqliy faoliyati hamda shaxsiy shakllanishining asoslari aynan maktabgacha yosh davrida shakllanadi. Ushbu davrda tarbiyalanuvchilarning atrof-muhitni idrok etishi, kuzatishi, taqqoslashi, tahlil qilishi va xulosa chiqarish qobiliyati faol shakllanadi. Shu jihatdan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning kognitiv faolligini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning muhim vazifalaridan biridir.

Kognitiv faollik bolaning yangi bilimlarni egallashga boʻlgan qiziqishi, bilishga intilishi, savollar berishi, izlanishi, kuzatishi va mustaqil xulosa chiqarishga boʻlgan ichki ehtiyoji hisoblanadi. Psixologik va pedagogik tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, kognitiv faolligi yuqori boʻlgan bolalar maktab ta'limiga tezroq moslashadi, ta'limiy jarayonni chuqurroq oʻzlashtiradi va ijodiy fikrlash koʻnikmalarini muvaffaqiyatli shakllantiradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nazariy nuqtayi nazardan, maktabgacha yoshdagi kognitiv rivojlanish ikki yirik ilmiy an'ana kesishmasida tushuntiriladi. J. Piaget bolaning bilish taraqqiyotini faol konstruksiya, ya'ni bola predmetlar bilan amaliy harakat qilgan sari sxemalarni qayta tuzishi, moslashtirishi va muvozanatlashtirishi jarayoni sifatida talqin qiladi [6].

L.S. Vygotsky esa oliy psixik funksiyalar ijtimoiy kelib chiqishga ega bo‘lib, bola kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlikda madaniy vositalar, ayniqsa, nutq yordamida bilish harakatlarini ichkilashtirishini asoslaydi [7].

Ushbu ikki yondashuv maktabgacha ta’lim pedagogikasi uchun metodologik jihatdan muhim: bir tomondan, bola mustaqil tajriba va amaliy sinovlar orqali bilim quradi, ikkinchi tomondan, bu tajriba pedagog tomonidan tashkil etilgan muloqot, namuna, savol va yo‘naltiruvchi yordam orqali mazmunan boyiydi. Demak, kognitiv rivojlanishning samaradorligi bolaning o‘z faoliyatini faollashtirish va kattalar ko‘magini me’yorida berish o‘rtasidagi nozik muvozanatga bog‘liq.

Pedagogik jihatdan kognitiv rivojlanishning tayanch mexanizmi o‘yin faoliyatidir. O‘yin bola uchun oddiy hordiq emas, balki ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish, predmetlar o‘rnini belgilar bilan almashtirish, qoidani tushunish, hamkorlikni muvofiqlashtirish, emotsiyalarni boshqarish va muammoli vaziyatni ramziy hal qilish maktabidir. Ijodiy, qurish-yasash, sahnalashtirilgan, qoidali, didaktik va tajriba o‘yinlari bolaning idrokini aniqlashtiradi, makon-vaqt tasavvurlarini kengaytiradi, tasniflash va taqqoslash operatsiyalarini rivojlantiradi.

M.Q. Qodirova va D.S. Nasimov maktabgacha yoshdagi bolalar idrokini ijodiy o‘yinlar orqali rivojlantirishda o‘yinning psixologik mazmuni, qabul qilish jarayonidagi faollik va fazoviy tasavvurlar shakllanishiga alohida urg‘u beradi [8]. Shu ma’noda, o‘yin orqali tashkil etilgan pedagogik ta’sir bolaning kognitiv tuzilmasiga bevosita emas, balki qiziqish, harakat, obraz, nutq va ijtimoiy rol vositasida kompleks ta’sir ko‘rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish faoliyatini rivojlantirishda o‘yin eng zarur faoliyat turi hisoblanadi. O‘yin jarayonida bolalar muammoli vaziyatlarni hal qilish, muloqot qilish, tajriba o‘tkazish va yangi bilimlarni mustaqil egallash, savollarga javob qaytarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu sababli, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashtirish kognitiv rivojlanishning zarur jarayonidir.

So‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim tizimida STEAM yondashuvi, rivojlantiruvchi didaktik o‘yinlar, loyiha asosida ta’lim, muammoli ta’lim hamda raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish tarbiyalanuvchilarning bilish faolligini rivojlantirishda foydali vositalar sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu metodlar bolaning mustaqil fikrlashi, tasavvuri, ijodkorligi va muloqot ko‘nikmalarini kompleks ravishda shakllantirishga xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu jarayonning dolzarbligi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning kognitiv faolligini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik usullarni ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning samaradorligini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurati bilan ochib beriladi. Maktabgacha katta yoshdagi tarbiyalanuvchilarda kognitiv faollikni rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon bolaning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi, muammolarni hal qilish qobiliyati hamda bilishga bo‘lgan ichki ehtiyojini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tarbiyachi tomonidan qo‘llaniladigan usul va metodlarning to‘g‘ri tanlanishi kognitiv rivojlanish samaradorligini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi [1].

Hozirgi kunda muammoli ta’lim usuli maktabgacha ta’lim tashkilotlarida keng qo‘llanilishi lozim bo‘lgan samarali pedagogik yondashuvlardan biridir. Ushbu usulda tarbiyalanuvchilarga tayyor bilim berilmaydi, balki ularni mustaqil izlanishga, kuzatishga, taqqoslashga va xulosa chiqarishga undovchi vaziyatlar yaratiladi. Masalan, “Sabzavot va mevalarni alohida idishga soling”, “Quyonda nechta sabzi bor?” kabi savollar tarbiyalanuvchilarda savollarga javob topish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Muammoli vaziyatlarni hal qilish jarayonida bolaning tafakkuri, tahlil qilish va umumlashtirish ko‘nikmalari shakllanadi.

Ikkinchi muhim usul - didaktik o‘yinlardan foydalanishdir. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyati hisoblanadi. Didaktik o‘yinlar orqali bolalarda diqqat, xotira, tafakkur, nutq va mantiqiy fikrlash rivojlanadi. Ranglarni ajratish, shakllarni taqqoslash, sonlarni tartiblash, predmetlarni guruhlarga ajratish kabi o‘yinlar bolalarning bilish faoliyatini faollashtiradi. O‘yin jarayonida bola bilimni erkin va qiziqish bilan o‘zlashtiradi, bu esa ta’lim samaradorligini oshiradi.

Loyihaviy faoliyat ham tarbiyalanuvchilarda kognitiv faollikni rivojlantirishning innovatsion usullaridan biridir. Loyihalar ustida ishlash davomida tarbiyalanuvchilar ma’lumot to‘playdi, kuzatadi, tajriba o‘tkazadi, natijalarni muhokama qiladi va yakuniy xulosaga keladi. Masalan, “Fasllar almashinuvi”, “Uy hayvonlari”, “Suvning xususiyatlari” kabi mavzulardagi kichik loyihalar bolalarning ilmiy tasavvurlarini kengaytiradi hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Eksperimental faoliyat ham maktabgacha ta’limda alohida ahamiyat kasb etadi. Oddiy tajribalar orqali tarbiyalanuvchilar tabiat hodisalari va atrof-muhit qonuniyatlarini amaliy kuzatish asosida o‘rganadilar. Tajriba o‘tkazish jarayonida bolaning kuzatuvchanligi, tahlil qilish, taqqoslash va xulosa chiqarish malakalari shakllanadi. Bunday faoliyat tarbiyalanuvchilarda ilmiy dunyoqarashning dastlabki elementlarini rivojlantiradi [2].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish ham kognitiv faollikni oshirishga xizmat qiladi. Interaktiv doskalar, multimediali taqdimotlar, elektron didaktik o‘yinlar va ta’limiy animatsiyalar tarbi-

yalanuvchilarda mashg'ulotlarga nisbatan qiziqishni kuchaytiradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalardan foydalanishda bolaning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarurdir. Kognitiv faollikni rivojlantirishda pedagogning kasbiy mahorati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tarbiyachi har bir bolaning individual qobiliyati, qiziqishi va rivojlanish darajasini hisobga olgan holda differensial yondashuvni amalga oshirishi kerak. Rag'batlantiruvchi savollar berish, ijobiy baholash, mustaqil fikr bildirish imkoniyatini yaratish hamda hamkorlikdagi jarayonni tashkil etish tarbiyalanuvchilarning bilishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi [3].

Shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish ham tarbiyalanuvchilarning kognitiv rivojlanishining muhim shartlaridan biridir. Uy sharoitida kitob mutolaa qilish, birgalikda konstruktorlar yig'ish, mantiqiy o'yinlar o'ynash, tabiatni kuzatish va oddiy tajribalar o'tkazish tarbiyalanuvchilarda ta'limiy jarayonda olingan bilimlarni mustahkamlaydi. Tarbiyachi va ota-onaning hamkorligi bolaning uzluksiz shakllanishi uchun juda zarur. Tarbiyalanuvchilarda kognitiv faoliyatni shakllantirish quyidagi metodlar bilan yanada rivojlanadi.

O'yin faoliyati orqali o'rgatish. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat turi bo'lib, matematik tushunchalarni shakllantirishda eng samarali vosita hisoblanadi. Didaktik o'yinlar bolalarning qiziqishini uyg'otadi va matematik tushunchalarni o'zlashtirishni osonlashtiradi [4]. Masalan, "Sonlar uyini qur", "Shakllar dunyosi", "Miqdorlarni taqqoslash" kabi o'yinlar orqali bolalar matematik bilimlarni ongli ravishda o'zlashtiradilar. Bu turdagi o'yinlar matematik bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatini beradi. Ko'rgazmali va amaliy materiallar bilan ishlash. Konkret narsalar bilan ishlash bolalarning matematik tushunchalarni chuqurroq o'zlashtirishiga yordam beradi. Hisoblagichlar, geometrik shakllar, rangli kubiklar, tarozilar va boshqa ko'rgazmali materiallar matematik tushunchalarni vizual va taktil usulda o'zlashtirish imkonini beradi [5]. Bu usul bolalarning turli sezgi organlarini faollashtiradi va bilimlarni mustahkamlaydi. Montessori materiallari ham bu borada alohida ahamiyatga ega. Sonli tayoqchalar, geometrik korpuslar, rang va o'lchamlar bo'yicha tartiblangan materiallar bolalarning matematik tushunchalarni mustaqil o'rganish imkoniyatini yaratadi.

Muammoli vaziyatlar yaratish. Bolalarning matematik fikrlashini rivojlantirish uchun ular oldiga kichik muammoli vaziyatlar qo'yish zarur. Masalan, "Agar bizda 5 ta olma bor va 2 tasini berib yuborsak, nechta olma qoladi?" kabi savollarga javob izlash jarayonida bolalar matematik amallarning mohiyatini tushuna boshlaydilar. Muammoli vaziyatlar bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va elementar matematik tushunchalarni amaliy qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu usul orqali tarbiyalanuvchilar elementar matematik bilimlarning hayotdagi amaliy ahamiyatini anglaydilar. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kognitiv faollikni rivojlantirishda kompleks pedagogik yondashuv juda zarur hisoblanadi. Muammoli ta'lim, didaktik o'yinlar, loyihaviy va eksperimental faoliyat, zamonaviy axborot texnologiyalari hamda individual yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bolalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish va keyingi ta'lim bosqichlariga puxta tayyorlashda juda zarur hisoblanadi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv faollikni rivojlantirish ularning shaxs sifatida kamol topishi va keyingi ta'lim bosqichlariga muvaffaqiyatli moslashuvining muhim jarayonidir. O'yin texnologiyalari, muammoli ta'lim, interfaol metodlar, tajriba va kuzatish faoliyati hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan maqsadli foydalanish tarbiyalanuvchilarda bilishga qiziqish, mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantiradi. Shu bois tarbiyachilar ta'limiy jarayonni bolaning yosh va individual xususiyatlariga mos ravishda tashkil etishi, rivojlantiruvchi muhit yaratishi va zamonaviy pedagogik yondashuvlardan samarali foydalanishi yaxshi natijalarga erishishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mavlonov N.Sh. Masofadan o'qitish tizimini o'quv jarayoniga qo'llash prinsiplari. // "Kasbiy fanlar metodikasi". Toshkent, 2019-yil, sentyabr, 9(106).
2. Abdullaeva N.Sh. Klasterli yondashuv asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish. Avtoref. p.f.d. (DSc). - T.: 2023. - 53 b.
3. Xurvaliyeva T.L. Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof olam bilan tanishtirish metodikasini takomillashtirish. Ped. fan. doktori (PhD) dis. avtoreferat. - T.: 2021. - 9-10 b.
4. Xushnazarova M.N. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish. Ped. fan. doktori (PhD) dis. avtoreferat. - T.: 2021. - 8 b.
5. Xoldarova F.M., Ochilov Z.X. Matematika va uni o'qitish metodikasi (60110400 - Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi uchun o'quv qo'llanma). O'quv qo'llanma. - T.: "ZEBO PRINTS", 2026. - 168 b.
6. Abdusattarovna, O. R. X., & Shohbozbek, E. (2025). Ijtimoiy falsafada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida sog'lom turmush tarzini shakllantirish. Global Science Review, 4(5), 175-182.
7. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. - 159 p.
8. Qodirova M.Q., Nasimov D.S. Maktabgacha yoshdagi bolalar idrokini ijodiy o'yinlar orqali rivojlantirish // Oriental Renaissance. - 2022. - Vol. 2, No. 2. - B. 621-624.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

**Mas’ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali 26.09.2023-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.